

INTELLEKTIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA FAZOVIY TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Pardayeva Munira Yusufovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Oligofrenopedagogika kafedrasini
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni fazoviy tushunchalarni anglashishing o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda bu tushunchalarni shakllantirish bo'yicha korreksion ishlarni o'z ichiga oladi.

Tayanch so'zlar: Korreksiya, psixika, tahlil, metod, ko'nikma, matematik tushuncha, fazoviy munosabatlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Пардаева Мунира Юсуфовна

*Низомий Ташкентский государственный педагогический университет, преподаватель
кафедры олигофренопедагогики*

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности понимания пространственных понятий у детей с ограниченными интеллектуальными возможностями и коррекционная работа по формированию у них этих понятий.

Ключевые слова: Коррекция, психология, анализ, метод, умение, математическое понятие, пространственные отношения.

FORMATION OF SPATIAL REPRESENTATIONS IN CHILDREN WITH INTELLECTUAL DISABILITIES

Pardayeva Munira Yusufovna

Nizomiy Tashkent State Pedagogical University, teacher of Oligophrenopedagogy Department

Annotation. This article discusses the features of understanding spatial concepts by children with intellectual disabilities and corrective work on the formation of these concepts in them.

Key words: Correction, psychology, analysis, method, skill, mathematical concept, spatial relationships.

Kirish. Bugun yurtimizdagi har bir bola Davlatimizning barcha haq-huquqlaridan to'liq foydalangan fuqarosi sifatida qaralishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga Davlat tomonidan tasdiqlangan «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» tamoyillari asos qilib olingan. Ijtimoiy va siyosiy sohada sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar ta'lim tizimini, jumladan, aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan rivojlantirish va muktabga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Maxsus ta'limni oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri, aqli zaif bolalar og'zaki nutqini rivojlantirish masalasi kun tartibida turgan eng dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Ayniqsa maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning nutqni idrok etishda qiyinchiliklarga uchrashi sezilib qolayapti. Bu esa, bolaning boshlang'ich muktabda o'qish hamda yozish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi. Bolaning nutqiy idrokini yaxshi rivojlanmaganligi, bolaning umumiyligi aqliy va ma'naviy fikrlash taraqqiyotiga, rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni takomillashtirish soha mutaxassislari oldida turgan vazifalardan biridir. Shu bois aqli zaif o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANISH bugungi kunda ularni ijtimoiy to'laqonli hayotga moslashtirish, sog'lom tengdoshlari bilan integratsiyalash va samarali ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz xalq ta'limi tizimi yordamchi muktablar hajm jihatidan katta bo'lmagan, biroq o'z ahamiyati bo'yicha muhim o'rin egallaydi. Chunki u hayotda va ishlab chiqarish mehnatida intellektida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga zarur bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash va umumta'lim bilimlarini ta'minlovchi yagona o'quv muassasasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Intellektida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ruhiy rivojlanishi L.S.Vigotskiy[2]ning nazariyasiga binoan birlamchi va ikkilamchi nuqsonning zo'riqishiga qarab

aniqlanadi. Ko‘pincha ikkilamchi sindrom sifatida aqli zaiflikdagi oliy psixik funksiyalar, ya’ni xotira, tafakkur, xarakter buzilishlari kuzatiladi[2].

Intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilarda bilishning birinchi bosqichi - idrok qilishda etishmovchiliklar kuzatiladi. Intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilar idrokining o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turishi berilayotgan o‘quv materiallarini idrok qilish uchun uzoq vaqt talab etilishi, asosiy narsalarni, muhim belgilar va alomatlarni ajratishda qynalishi, yaxlitlikdagi qismlar orasidagi ichki bog‘lanishni tushunmasligi bilan belgilanadi. Matematik tushunchalar murakkab hayot munosabatlari: miqdoriy, fazoviy, vaqt tushunchalarini, shakl va hajm haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi. Intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilar fazoviy munosabatlarini idrok qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish qator maxsus pedagogik va psixologik adabiyotlarda yoritilgan. Yordamchi maktab o‘quvchilarida fazoni idrok qilish va fazoviy tasavvurlarni shakllantirish I.M. Soloveva va uning rahbarligida bajarilgan tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan (K.I. Veresotskaya, E. S. Beyn, M. M. Uedelman, L. V. Zankov, E. Bedora)[2].

Xilma-xil intermodal bog‘lanishlar fazoni idrok qilish jarayonida amalga oshiriladi. Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalarda bu turli darajada to’liqmas bo’ladi. Masalan o‘zaro ko‘rish funksiyasining o‘zaro harakatlari ko‘rish o’tkirligi, ko‘z bilan mo’ljal olish, fazoni mo’ljal olishda visual komponentlari to’liq bo’lishini ta’minlaydi. Ko‘pincha Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalar me’yorda rivojlanishi uchun bu funksiyalar harakterli darajada bo’lmaydi. Bu ular orasida ko‘p tarqalgan ko‘rish o’tkirligining pasayganligi va boshqa faktorlarga bog‘liqdir. Ko‘rish va motor koordinatsiyalarini aniqlash uchun ko‘z va qo‘lning funksional ustunligi katta ahamiyatga ega. Intellektida nuqsoni bo’lgan bolalarda bu belgilarning rivojlanmaganligi kuzatiladi. Fazoni bilish barcha bolalar uchun umumiy bosqichlarga bo’lingan holda o‘rganiladi. Me’yorda rivojlanayotgan o‘quvchilarda eng sezilarli siljishlar uch bosqichda kuzatiladi. Ulardan birinchisi bolaning fazoda faol harakat qilishi; ikkinchisi bola predmetlar bilan harakat qilishni o‘zlashtirishi; uchinchisi nutqining rivojlanishi bilan bog‘liq bo’lib, fazoviy kategoriyalarni so‘z orqali ifodalash imkonini tug’ilishi orqali ifodalanadi. Bu omillar intellektida nuqsoni bo’lgan bolalarning rivojlanish jarayoniga ham taaluqlidir. Ammo me’yorda rivojlanayotgan bolalar bilan aqli zaif bolalarning rivojlanishi xususiyatlarini taqqoslasak, aqli zaif bolalarda fazoni bilish haqidagi uch bosqich o‘ziga xos shakllanadi. Bunga, ma’lumki intellektida nuqsoni bo’lgan bolalarning ko‘pchiligidida o‘tirish, turish, yurish kabi holatlar kechikib rivojlanadi (S.E. Suhareva, M. S. Pevzner)[1].

Birinchi fazoda faol ko‘chish holatlarini ta’minlash atrof muhitni o‘rganish uchun qulay bo’ladi, ammo sekin shakllanadi. Ayniqsa intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilar qog‘ozda mo’ljal olishda qynaladilar. O‘ng va chap tomonlarni aniqlash ular uchun murakkabdir. Intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilarni maktabga tayyorlashda ularning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. J.I. Shifning tadqiqotlari intellektida nuqsoni bo’lgan qo‘yi sinf o‘quvchilar uchun harakterli bo’lgan ko‘rish idrokining etarli differensiyalashmaganligini ko‘rsatadi. Bu ranglarni ajratishga qaratilgan tajribalarda aniqlangan[4].

Intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilarning fazoviy-vaqt haqidagi tushuncha va tasavvurlarini holatini o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan T.A.Vlasova, G.M.Dulnev, G.N.Golovina, L.V.Zankov, V.I.Lubovskiy, M.S.Pevzner, V.G.Petrova, V.I.Pinskiy, I.M.Solovev, J.I.Shif va boshqalarning tadqiqotlariga, shuningdek tadqiqotimizni tashkil qilishda umumiy pedagogika, oligofrenopedagogikaning tamoyllariga tayanildi[5]. Intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilarni fazoviy tushunchalarini o‘rganish 5 ta topshiriq asosida tekshirildi.

Maktab yoshidagi intellektida nuqsoni bo’lgan o‘quvchilarni fazoviy tasavvurlarini tekshirish jarayonida quyidagilar o‘rganildi:

- O‘z tana tuzilishini mo’ljal olish , qarshisida (ro‘parasida) turgan o‘rtog‘ining tana tuzilishini mo’ljal olish;

- Fazoviy tushunchalarini rasm asosida tushunishi (“Ko‘rsat” instruksiysi asosida);
- Fazoviy tushunchalarini rasm asosida tushunishi (“Ayt-chi” instruksiysi asosida);
- Qog‘ozda mo’ljal olishi.

Aqli zaif o‘quvchilarni fazoviy tasavvurlarining xususiyatlari

1-jadval

Berilgan topshiriqlar O‘quv-chilar soni Topshiriq-larni to‘g‘ri bajardi

	Topshiriq-larni yordam asosida bajardi.		
	Topshiriq-larni xatolar bilan bajardi.	Topshiriq-larni bajara olmadı.	
O‘z tana tuzili-shini mo‘ljal olishi	12	1/8% 5/42% 5/42% 1/8%	
Qarshisida turgan o‘rtog‘ini tana tuzilishida mo‘ljal olish	12	-	6/50% 4 / 3 4 %
2/16%			
Fazoviy tushunchalarni rasm asosida tushunishi ("Ko‘rsat" instruksiyasi asosida)	12	1/8% 4/34% 6/50% 1/8%	
Rasmda ifodalangan fazoviy tushuncha-larni tushunishi ("Ayt-chi" instruksiyasi asosida)	12	1/8% 7/58% 4/34% -	
Qog‘ozda mo‘ljal olish	12	1/8% 4/34% 5/42% 2/16%	

O‘z tanasida mo‘ljal olish topshirig‘ini bajarishda aqli zaif o‘quvchilar quydagi qiyinchiliklarga duch keldilar. Ular fazoviy tushunchalarni mustaqil nomlay olmadilar. Aqli zaif o‘quvchilar har doim ham o‘zining tana qismlarini aniqlay olmadi. Ular mustaqil ravishda bitta ham mashqni bajara olmadilar. O‘quvchilarga qayta savol berilganda ular xohlagan qo‘llarini ko‘rsatishdi. Qarshisida turgan o‘rtog‘ini tana tuzilishida mo‘ljal olish topshirig‘ini hech qaysi bola to‘g‘ri bajara olmadi. Fazoviy tushunchalarni rasm asosida tushunishi ("Ko‘rsat" instruksiyasi asosida) bir nafar (8 %) bola topshiriqni bajarib berdi. Topshiriqlarni yordam asosida 4 nafar (34%) bola bajarishga xarakat qildi. Eksperimentator rasmda tasvirlangan daraxt ustida, ostida, old tarafida, orqa tarafida kabi fazoviy tushunchalar haqida ma’lumot bergenidan keyingina vazifani bajarishdi.

Fazoviy tushunchalar ko‘plab psixik jarayonlarning tarkibiy qismi va asosi hisoblanganligi bois ham aqli zaif o‘quvchilarda uchraydigan nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha korreksion ishni avvalo o‘quvchilarda elementar predmet va hodisalarni tasavvur eta olishi va alohida xususiyatlarini his qila olishini rivojlantirishdan boshlash lozim. Keyingi o‘rinda ishni fazoviy munosabatlarni tushunish va uni og‘zaki nutqida ifodalashini rivojlantirishdan boshlagan holda fazo haqidagi tasavvurlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Maxsus o‘qitishda ilk rivojlanish va maktabgacha yoshdagи bola fazoni o‘rganish genezisi va bu jarayonda harakat analizatorlarini o‘rnini hisobga olish kerak. Fazoviy mo‘ljal olishning his qilish asosini shakllantirishda mushak-bo‘g‘im apparatidan keladigan signallar muhim rol o‘ynaydi. Yetakchi qo‘ldan kelayotgan signallar atrof- fazoga ma’lum bir nomutanosiblikni beradi. Aqli zaif o‘quvchilarda harakatlarni noaniq tashkil etilishi fazoda mo‘ljal olishni rivojlanishiga to‘sinqlik qiladi. Shuning uchun korreksion ishning birinchi galdeg‘i vazifalaridan bira sezish va harakat tajribasini shuningdek, predmetli harakat faoliyati tajribasini boyitish va shularni asosida bolani o‘rab turgan atrof- muhit va o‘z tana tuzilishi haqidagi tushunchalarini boyitish lozim. Fazoni amaliy o‘rganish jarayonida iloji boricha fazo-vaqtga aloqador atamalarni o‘rganish, fazoviy-vaqt tushunchalarini so‘z bilan ifodalashga o‘rgatish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarda fazoviy-vaqt tasavvurlarni rivojlantirishni bir necha bosqichga bo‘lish mumkin:

1 - bosqich. Somatognistik, taktil va kinestetik jarayonlarni rivojlantirish.

Maqsad: Bolaning sezish va harakat tajribasini boyitish.

Vazifasi: tana qismlarining turli nomlari va joylashuvini aniqlash; butun tana qismi ishtirok etadigan holat va qo‘l holatlarini mustaqil ko‘rsatib berish va qaytarishga o‘rgatish; barmoq bilan kaftga, orqaga yozilgan son, harf va shakllarni aniqlash ko‘nikmasini rivojlantirish; turli shakl va yuzaga ega bo‘lgan predmetlarni ajrat olish qobiliyatini shakllantirish.

Yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlarni rivojlantirishdan oldin bolaning umumiyl muskul tonuslarini mutadillashtirish, muskul qisishini bartaraf etish lozim. Ular turli taktil sezgilarni aniqlash, tana holatini tashkil etish va takrorlash hamda tana qismlarini ko‘rsatish va nomlashni o‘z ichiga oladi.

2-bosqich. "O‘z tana tuzilishi" haqida tasavvurlarini shakllantirish.

Maqsad: Organizmning atrof- olamdan ajralib turishi va bola o‘z tana qismini idrok etishini aktuallashtirish.

Vazifa: amaliyotda "O‘z tana tuzilishi" haqida tasavvurlarini shakllantirish (yuz tuzilishi, tana tepe va pastki orqa va oldi tomonlari); mustaqil ravishda harakatlarni tasvirlash va bajarishga o‘rgatish.

Bola o‘z "tana tuzilishi"ni o‘rganishida tepe-past (shift, osmon-pol, o‘t), oldi-orqasi (kuylakdag‘i tugma- belbog‘), o‘ng-chap tomonlar (hol - qo‘l soati) tushunchalari mavjud ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun turli misollardan foydalanish kerak. Oldin fazo tomonlari butun tanani ma’lum bir tomonga harakatlanishi bilan bog‘lanadi. So‘ngra butun tana harakati boshni burish, qo‘lni aytilgan

tomonga yo'naltirish, so'ng faqat nigoh bilan almashtiriladi. Tana qismlarini o'zaro joylashuvi ishlab chiqiladi (teparoq-pastroq, oldi-orqasi, o'ngdan-chapdan). Bola uchun eng qiyini tana qismlarini chap va o'ngda joylashuvini tushunishi sanaladi. Shuning uchun tana qismlarini avval o'ng va chap qo'lga to'g'irlab mashqlar bajarish maqsadga muvofiq. Eng muhimi bola so'z instruksiyasi bo'yicha tana qismlarini turli harakatlarini bajarishga o'rganishi lozim. (o'ng elkangni tepaga ko'tar, o'ng kafting bilan chap ko'zingni yop).

4-bosqich. Ikki o'lchamli fazoda mo'ljal olishini rivojlantirish.

Maqsad: Tekis predmetlarni fazoviy xarakteristikasini idrok etish, mustaqil ravishda qayta tiklash va o'zlashtirishini rivojlantirish.

Vazifa: o'quvchilarni o'qitish: Bo'm bo'sh qog'ozning burchak va tomonini belgilab olamiz. Qog'ozning tekislikda turgan tomonlarini ya'ni yuqorigi, pastki o'ngdan, chapdan kabi tomonlarini goldiramiz. Tekislikda turgan qog'ozning bir-biriga munosabati. Har xil tekislikda joylashgan figura elementini hisoblash. Oddiy figuralarini ko'chirish, figura seriyalarini analizlash, vertikal va gorizontal tomonlarda joylashganligini aniqlash. Ularni yuqoridan pastdan, o'ng va chap yo'nalishlar to'g'riliagini ko'rish; figura qatorlarini ko'chirish; Murakkab figuralar joylashganligini analiz qilish, bir nechta figurallardan tashkil topganlarni nusxa olish va ularni to'g'ri yo'nalishda qo'llash. Qog'ozni mo'ljalga olib 180 ga hayolan ag'daramiz.

Ikki o'lchamli fazoda joylashgan toza oq qog'ozning tomon va burchaklarini o'rganib chiqamiz. Shundan so'ng bola predmetlarni qog'ozning chap pastki, o'ng yuqori burchaklariga joylashtirib chiqadi, qaysi burchaklar to'ldirilmaganini aniqlaydi. Tekis predmetlar, son va harflarni qo'g'ozda bir-biriga nisbatan joylashuvini tushunishi shakllantiriladi.

5 - bosqich. Fazoviy munosabatlarni aks ettiruvchi grammatik konstruksiyasini tushunishni rivojlantirish.

Maqsad: fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.

Vazifa: o'quvchilarga bizni o'rab turgan dunyoni aks ettiruvchi so'zlarni tushuntirishga o'rgatish; og'zaki nutqda fazoviy munosabatlarni aks ettiruvchi so'zlar va konstruksiyalardan mustaqil ravishda foydalanish malakasini shakllantirish.

Avval bola pedagog ko'rsatmasiga binoan predmetlar bilan turli manipulyatsiya va harakatlarni amalga oshiradi. So'ngra o'z hatti – harakatlari haqida gapirishga o'rganadi. Stol ustida quticha va uning qopqog'i turibdi. Bolaga kartondan yasalgan aylana beriladi va aylanani quti ustiga quyish, qutiga solish, quti yoniga va tagiga, oldiga va orqasiga quyish taklif etiladi. Stol ustida quticha turibdi. O'qituvchi aylanalarni quyib, boladan ko'rsatma asosida aylanalarni olishni so'raydi: Aylanani qutidan ol, aylanani quti ichidan ol, aylanani quti yonidan ol, quti tagidan aylanani ol, quti orqasidan aylanani ol.

O'qituvchi barcha o'quvchilar oldida aylanani ikkita qutilarga joylashtiradi. Iborani aytishdan oldin o'quvchilarga oxirini davom ettirishni kelishib oladi. Men aylanani solaman (qutichaga, quticha oldiga, quticha ustiga, quticha atrofiga) Men aylanani olaman (qutichadan, quticha oldidan, quticha ustidan, quticha atrofidan)

O'qitish eksperimenti davomida olingan ma'lumotlar tahlili qo'yidagi xulosalarga kelishimizga yordam berdi:

1. O'tkazilgan tadqiqot ilmiy adabiyotlarda keltirilgan aqli zaif o'quvchilar fazoviy-vaqt tasavvurlari haqidagi ma'lumotlarni tasdiqladi. Aqli zaif o'quvchilar fazoviy-vaqt munosabatlarini tushunmasliklari va verbal vositalar yordamida ularni nutqda qullay olmasliklari aniqlanib, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha korreksion ish yo'nalishi belgilab chiqildi.

2. Shu bilan bir qatorda fazoviy-vaqt tasavvurlarini shakllantirish bo'yicha korreksion ish olib borilgandan keyin ham natijalar meyordan ancha pastligi aniqlandi. Shu sababli fazoviy-vaqt tasavvurlarini alohida aspektlarini rivojlanish darajasini aktual baholash va uni bolada mavjud meyor ko'rsatkichlari bilan solishtirgan holda nuqsonni va qay darajada orqada qolayotganini aniqlash muhim shartlardandi.

Adabiyotlar

1. Sagatov M.I. Yordamchi mifik tabda matematika o'qitish uslubiyati. T.: O'qituvchi. 1993 y.
2. Выготский Л.С. Основы дефектологии // Собрание сочинений в 6-ти томах.. -М.: Педагогика, 1983. Т. 5.
3. Гаврилушкина О.П., Соколова Н.Д. Воспитание и обучение умственно-отсталых дошкольников // Книга для воспитателей. -М.: Просвещение, 1985. -//72 с.